



## SO'ZLOVCHI VA UNING O'ZIGA BERGAN BAHOSI MASALASI

Umurova Feruza

Qarshi DU magistri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7594224>

### ARTICLE INFO

Received: 22<sup>th</sup> January 2023

Accepted: 30<sup>th</sup> January 2023

Online: 31<sup>th</sup> January 2023

### KEY WORDS

*Kommunikant, modal ma'no, baho masalasi, so'zlovchi nutqi, tovush tili, imo-ishora tili.*

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada so'zlovchi va uning o'ziga bergan bahosi masalasi tadqiq qilingan. Asosiy diqqat e'tibor kommunikantga, uning o'zi haqidagi nutqiga va, albatta, kommunikantning o'z-o'ziga beradigan modal munosabatiga hamda modal munosabat ma'nolarini yoritib berishga qaratiladi.*

Muloqot xususiyatlari tilshunoslik nuqtai nazaridan ham, psixologik qarashlar jihatidan ham o'ziga xos ravishda o'rganilib kelingan. Kommunikatsiya jarayonining kengayishi munosabati bilan uni tadqiq etish ham murakkablasha boradi. Boshqa sohalarida bo'lgani kabi tilshunoslikda ham yangi tarmoqlar, yangi tadqiqotlar obyektiv tarzda yuzaga kela boshladi. Olimlar jahon tilshunosligida kishilar o'rtasidagi aloqa-aralashuv jarayonini lingvistik xususiyatlar asosida ikki guruhga ajratib o'rganishni tavsiya etadilar:

1. Tovush tili — eshitish asosidagi mazmun va shakl.
2. Imo\_ishora — ko'rish vositasi bilan amalga oshiriladigan til.

Biroq bu qatorga sezgi bilan amalga oshadigan til — ko'rlar o'qiydigan (barmoq bilan) matnlarni ham kiritish to'g'ri bo'lar edi, deb o'ylaymiz.

Ma'lumki, aloqa\_aralashuv jarayoni bilish, anglash, ifodalash, sezish, o'qish bilan uzviy aloqador ifoda shakllarining turli\_tumanligi bilan ajralib turadi. Ifoda shakllari qo'llana boshlashining o'zidayoq munosabat tushunchasi namoyon bo'la boshlaydi. Shuning uchun ham bularga xos semantik, sintaktik va, ayniqsa, pragmatik xususiyatlarni ma'lum lingvistik mezonlar vositasida ajratish bugungi tilshunoslikning asosiy masalalaridan biridir.

Ammo bizning tahlil etmoqchi bo'lganimiz, kommunikatsiya jarayonining qanday va qaysi vositalar bilan amalga oshirilishi emas, balki bu hodisani amalga oshiruvchi, ya'ni o'z nutqiy faoliyatida qo'llovchi nutq subyekti va adresat, shuningdek, muloqot vaziyati, kontekst, nutqiy aktlar nazariyasi haqidagi masalalardir.

Tadqiqotimizning mavzusidan anglashiladiki, asosiy diqqat\_e'tiborimiz so'zlovchiga, uning o'zi haqidagi nutqiga va, albatta, so'zlovchining o'z\_o'ziga beradigan bahosiga qaratiladi.

So'zlovchi nutqni yaratuvchi subyektdir. Uning nutqi, aniqrog'i, nutqiy murojaati nafaqat tinglovchiga (dialog shaklidagi nutqiy muloqot) yoki borliqqa (emotsional vaziyatlarda), shuningdek, o'ziga ham qaratilgan bo'lishi mumkin. So'zlovchi o'z\_galar haqidagi nutqini ham, o'zi haqidagi nutqini ham, ko'pincha, subyektiv qarashlariga, atrofdagilarning umumiy



xulosasiga, barcha uchun belgilab qo'yilgan va belgilab qo'yilmagan meyorlarga bog'lagan holda vujudga keltiradi.

Mantiq fanida hukm subyekt, obyekt va predikatdan iborat, deb ta'riflanadi. Bunda subyekt deganda, hukmning bajaruvchisi yoki mantiqiy egasi nazarda tutiladi. Ushbu mantiqiy mulohazaning tilshunoslikdagi mutanosib ko'rinishlarini esa bevosita ega, kesim, ikkinchi darajali bo'laklar tashkil qiladi. To'g'ri, bu tushunchalarning o'zaro nomuvofiqlik holatlari ham mavjud, biroq biz tadqiqotimizning pragmatik jihatlari asnosida ularni teng kuchli, deb baholaymiz.

Ongda yaralgan fikr nutq shaklida namoyon bo'lishi uchun uni talaffuz etuvchi, amalga oshiruvchi subyekt, aniqrog'i, so'zlovchi zarur bo'ladi. So'zlovchi muayyan maqsad, zaruriyat, xohish tufayli nutq yaratadi. Albatta, nutqqa xos meyorlarning bajarilish darajasi so'zlovchining fiziologik, psixologik, kommunikativ va ma'naviy xususiyatlari bilan bog'liq bo'ladi.

So'zlovchi qachon o'zi haqida nutq yaratadi? Uni o'z qarashlari, orzu\_umidlari, ko'ngil sirlari haqida gapirishga nima majbur qiladi? Bu savollarga mukammal javobni faqatgina psixologiya, etika, logika, sotsiologiya kabi sohalarning o'zidan emas, balki ularning tilshunoslik fani bilan kesishuv nuqtasidan izlash mumkin, deb hisoblaymiz. Chunki ijtimoiylikka xos, ta'lim\_tarbiyaga bog'liq, nasliy xususiyatlar bilan hamohang bo'lgan nutqiy qobiliyat har bir shaxsda har xil shakllangan bo'lishi, shaxsning o'z dunyoqarashi yordamida yuzaga chiqishi va, eng asosiysi, turli voqeliklar haqidagi mulohazalar turli shaxslarda turlicha ifoda etilishi mumkin.

So'zlovchining o'zi haqidagi so'roqqa javob berishi, uning o'z\_o'zi bilan suhbatlashishi, turli emotsional\_ruhiiy holatlar (xursandchilik, xafalik, hissiyot, hayajon, qo'rquv, tushkunlik va hok.), odamning yoshi, jinsi, mijoziga bog'liq bo'lgan xususiyatlar, shuningdek, ruhiy nosog'lom kishilar nutqiga xos ayrim jihatlari so'zlovchining o'zi haqidagi nutqiga misol bo'la oladi. So'zlovchining bunday nutqi uning manfaatlariga, ehtiyojlariga, obro'\_e'tiboriga, jamiyatda tutgan o'rniga bog'liq bo'lgani sababli obyektiv/subyektiv, haqiqat/yolg'on, yuqori/past, ijobiy/salbiy yoki neytral mazmunda bo'lishi mumkin:

Men yolg'on gapirmayman.

Men birovlar fikri bilan hisoblashishni yoqtirmayman. Boshqalar kabi men ham o'zinga yaxshi bo'lishini istayman.

Shu yoshingacha hech kimning yuragidan joy ololmabman-da.

Dunyoda mendan ahmoq odam yo'q.

Xom sut emgan bandaman.

So'zlovchining o'zi haqida ijobiy, yuqori bahoda fikr aytishi uning o'ziga bo'lgan muhabbati, o'z tuyg'ularini hurmat qilishi, ularni o'zgalardan qattiq himoyalashi yoki o'zini boshqalardan ustun qo'yishi sababli yaratiladi. Munosabat bildirishning aksincha holati esa so'zlovchining kamtarligi, o'zidan ranjishi, o'zini tanqid qilishi, ba'zan o'zi haqida, atrofdagilarning past bahosi bilan, haqiqatda ham shunday deb o'ylashi oqibatida vujudga keladi.

So'zlovchining o'zi haqida nutq yaratishi (samorechiye) tilshunoslikda qisqa bo'lsa da yoritilgan. Bunday nutqiy hodisa tavsifini yangi yapon tili bo'yicha mutaxassis — tilshunos N.A.Siromyatnikov ishlarida ko'rish mumkin. Olim yapon tilining zamonaviy shaklini o'rgana



turib, unda so'zlovchi o'zi haqidagi nutqida o'zini qanday atashi mumkinligini kuzatadi, nutq yaratuvchisi o'zi haqida gapirganda ko'proq kamtarlik (bu haqda keyinroq) yoki o'zgalarni hurmat qilishiyangi yapon tiliga xos xususiyat ekanligini ta'kidlaydi. Yaponlar o'zlarini o'zi haqidagi nutqida, asosan, kamtarlik jihatidan, I shaxs kishilik olmoshi bilan, ko'pincha, o'z ismi (bu (kono) ko'rsatish olmoshi yordamida) bilan, qon\_qarindoshlik terminlari, o'z kasbi, mutaxassisligi nomi bilan atashadi.

Zero, bu Xachiuemonga (menga) o'z do'stona tuyg'ularini to'liq ifodalamaslikka to'g'ri keldi.

Demak, bularning hammasi Umegava (men) tufayli.

Har gal shu haqda eshitganda, bu amakining (mening) qanday ahvolga tushishini tasavvur qilaver.

O'zi haqida nutq yaratishning shunga o'xshash jihatlarini va o'ziga xos ifoda shaklini Amerika hindulari, Sibir xalqlari misolida ham aniqlash mumkin. Ular nutqi yaponcha belgilarni, shuningdek, gap kesimining III shaxsda qo'llanilishini namoyon etadi:

Unks seni shu yerda kutadi.

Chingachguk seni aldamaydi.

Lochinko'zga oxirgi marta imkon ber.

Dersu Uzala Taygaga qaytishni xohlaydi.

Sen bu ovchiga aql o'rgatma.

(Ushbu misollar shu xalqlar hayotiga oid badiiy filmlardan olingan).

O'zbek tilida o'zi haqidagi nutq deyarli ishlanmagan. Biroq bu hodisaga kundalik turmushda, muloqot jarayonida, badiiy adabiyotlarda ko'p marta duch kelish mumkin. So'zlovchi kommunikativ maqsadining amalga oshirishini, muvaffaqiyatlilik, haqiqiylik shartlarini, shuningdek, zaruriy vaziyatni yaratish yo'lidagi nutqiy taktika hisoblangan bunday nutq muayyan ifoda usullariga, kontekstual mazmunga, modallik bilan bog'liq xususiyatlarga ega. Bu nutqning natijaviy xulosasi har xil bo'lishi mumkin, shuning uchun o'zi haqida gapirayotgan kishi o'z tushunchalari, bilimlar fondi, tarbiyalanganlik darajasidan tashqari, o'zgalarning munosabatini ham hisobga olishi lozim.

Etikada odob\_ahloq qoidalari alohida kategoriyalar misolida o'rganiladi. Insonning o'zi haqida nutqida maydonga keladigan, uning xatti\_harakatlarida ko'zga tashlanadigan kamtarlik kategoriyasi ham shular jumlasiga kiradi. Kamtarlik aktini amalga oshirish bilan kommunikativ maqsadga erishish, tilning ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, kommunikantlar o'rtasida ijobiy, muvaffaqiyatli munosabat hosil qilish mumkin. Bundan ko'rinadiki, kamtarlik ham nutqiy taktikadir. Inson fe'lida va nutqida bu xususiyatning mavjud bo'lish\_bo'lmasligi esa psixologik, ahloqiy, mantiqiy tadqiqotlar asosida aniqlanadi.

So'zlovchining nutqiga xos bir ifoda aktida turlicha mazmundagi kommunikativ maqsadning ifodalanishi kommunikativ taktika tushunchasini namoyon etadi. Kamtarlik aktining nutq taktikasi sifatida ifodalanishi subyektning o'ziga ishonchi, qat'iyati, salohiyati, madaniyati tufayli yuzaga keladi.

Ma'lumki, pragmatikada nutqiy aktning kontekst bilan munosabati o'rganiladi. Kamtarlik akti bilan kontekstning aloqasi, shuningdek, kontekstual semantika doirasida ham ko'riladi. Matnni tashkil etuvchi gaplar kontekstda muayyan mazmunni, ushbu kontekstdan ajratib olinganda yoki boshqa o'rinda butunlay o'zga ma'noni ifodalashi mumkin.



Bu o'zi kichkina kitob. Sovg'amiz juda arzimas.

Bu nutqiy akt kontekst talabi bilan xabar, kamtarlik, afsuslanish, hijolatlik, qo'rqish va boshqa modal ma'nolarni bera oladi.

Nutqiy aktlar funksiyalarini Dj. Ostin illokutiv kuchlar deb atagan. Kamtarlik akti uchun illokutiv kuch sifatida subyektning o'z xususiyatlarini kamaytirib, kichraytirib ko'rsatishini keltirish mumkin.

Aytgan fikrlaringizga to'liq qo'shilaman. Qarshi bo'lmasangiz, kichkinagina taklifim bor edi.

Nega endi men. Tuzukroq tayyorgarlik ko'rganim yo'q. Buning ustiga, katta davralarda gapirib o'rganmaganman.

Kamtarlik akti muvaffaqiyatlilik shartiga ko'ra, haqiqiy yoki yolg'on bo'lishi mumkin. Subyekt xususiyatlari va imkoniyatlari adresat xususiyatlari darajasiga yeta olmasa, kamtarlik akti haqiqiydir. Bu o'rinda subyekt o'zida mavjud kamchiliklarni ochiq\_oydin tan oladi.

Uch yildan buyon shu ish ustidaman. Ko'pchilik adabiyotlarni ko'rishga ulgurdim. Lekin bilaman, yaxshi mutaxassis bo'lib yetishishimga hali ancha bor.

Agar so'zlovchi ushbu akt vaziyatida tinglovchining izzat\_nafsi, obro'si, yoshi, martabasi va boshqa jihatlarini e'tiborga olgan holda kamtarlik qilsa, bu akt haqiqiy emas, balki hurmat, xushomad, qo'rquv, kinoya, maqtanish, ustamonlik kabi illokutiv kuchlar ta'sirida yuzaga kelgan bo'ladi.

Men o'z so'zimni o'tkazmoqchi emasman. Siz bu sohaning yaxshigina bilimdonisiz. Albatta, sizdan o'tib bir nima deyish qiyin. Shuning uchun, mening fikrimni e'tiborga olish-olmaslik o'zingizga xavola.

Kamtarlikning tilda maxsus grammatik ko'rsatkichi yo'q. Yuqorida ta'kidlanganidek, bu akt mazmuni faqat kontekst vositasida ochiladi.

Hunarimizning bor-yo'q siri -shu. Ortiqcha sabr-bardosh, mehnat talab qilmaydi. Yaxshigina daromad olish ham qiyin. Kelajakdagi rejalarimiz uncha katta emas.

Berilgan misollardan ko'rinib turganidek, inson ruhiyatini anglash juda murakkab vazifadir. Kishilar o'z manfaatlariga turlicha yondoshadilar: kimdir qo'rqqanidan, kimdir maqtanish tufayli, kimdir kinoya bilan, yana kimdir haqiqiy ma'noda kamtarlik qiladi.

Barcha nutqiy aktlar bir\_biriga bog'lanadi. Biror akt sabab bo'lib, boshqa akt vujudga kelishi mumkin. Berilgan nutqiy aktdan oldingi vaziyat propozitsiya bilan bog'liqdir. Gap orqali ifodalangan propozitsiyaning to'g'ri anglanishi uchun nutq ishtirokchilarining barchasi kontekstual vaziyatdan xabardor bo'lishlari lozim.

Kamtarlik akti uchun propozitsiyani maqtanish kontekstidan izlash maqsadga muvofiqdir. Holbuki, so'zlovchi o'zi haqida gapirganda, ko'pincha subyektiv munosabat maydonga keladi. Insonda o'zini oqlash, o'z xatti\_harakatlarini, fikrlarini ijobiy baholash, ularni o'zgaralar fikridan himoya qilish instinkti yaxshi rivojlangan. Shuning uchun, so'zlovchining o'zi haqidagi nutqi ko'proq maqtanish aktini vujudga keltiradi.

Kishilar hech qachon kamtarlik aktiga shunchaki murojaat qilishmaydi. Ular bu mantiqiy, axloqiy hodisa bilan o'z madaniyatlarini, tarbiyalanganlik darajalarini, muloqot o'rnatish malakalarini namoyon etishni xohlaydilar. Kamtarlik axloqiy qadriyatlar o'zgarishi bilan o'zgaradi.

Bu yerda mening xizmatim deyarli yo'q. Men bor-yo'g'i o'z burchimni bajardim, xolos.



Yozganlarim anchagina bo'lib qoldi. Qayta ishlashga muhtojlari ham bor. Iqtisodiy imkoniyatni hisobga olmaganda ham, hali kitob chiqaradigan darajaga yetganim yo'q.

Yuqorida berilgan misollar (yangi yapon tili, Amerika hindular, Sibir xalqlari nutqiy materiali) dan kelib chiqib, o'zbek tilida ham so'zlovchining o'zi haqidagi nutqi va uning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish mumkin.

Ta'kidlanganidek, so'zlovchi o'zi haqidagi nutqida o'zini turlicha nomlashi mumkin (nominatsiya). Buni tahlil qilganimiz — kamtarlik akti bilan bog'lash juda asosli. Chunki o'zi haqida so'zlayotgan odam ko'pincha «men» olmoshini qo'llaydi, ya'ni o'zini shunday nomlaydi. Bu esa har doim ham kamtarlik ifodalaydigan belgi sanalmaydi. Biroq so'zlovchi o'zini nomlashi mumkin bo'lgan yana bir qancha vositalarni keltirish mumkin. Shunday qilib, so'zlovchining o'zi haqidagi nutqida qo'llaniluvchi ismlar quyidagilar:

1. Otlar:

a) so'zlovchining ism\_sharifi.

b) qarindosh\_ urug'chilik nomlari.

v) kasb\_hunar otlari.

2. Sifatlar.

3. Olmoshlar.

Otlar, umuman, narsa\_buyum, hodisa va kishilarni atab kelish xususiyati tufayli so'zlovchining o'zini nomlashi uchun muhim asos bo'la oladi:

Shunday paytlarda xafa bo'lib ketasan kishi.

Odamning joniga tegib ketdi-ku!

Qo'ying, kambag'alga bir so'm ham pul-da.

So'zlovchi o'z ism\_sharifini qo'llash orqali nutqning xabar yo ki murojaat (ba'zan o'ziga) mazmunini ochib beradi:

Men, Nargiza Matyoqubova, 2 dekabr kuni darsga kechikib keldim.

Akromni kim deb o'ylashadi ular?!

Aziza seni qachon aldagan?

## References:

1. Абдуазизов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. -Тошкент: Ўқитувчи, 1992. 136 б.
2. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивлик ифодалашнинг синтактик усули. – Тошкент: Фан, 1987. 88 б.
3. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. Тошкент: Фан, 1983. 88 б.
4. Абдурахмонов Ф., Сулаймонов А., Холиёров Х., Омонтурдиев Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. -Тошкент: Ўқитувчи, 1979. 208 б.
5. Абдурахмонов Ф., Шукуров Ш., Маҳмудов Қ. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. -Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2008. 528 б.
6. Абдурахмонов Ф. Қўшма гап синтаксиси. -Тошкент: Фан, 1964. 246 б.
7. Абдурахмонова М. Туркий тилларда эгалик категорияси // Ўзбек тили ва адабиёти. -Тошкент, 2001. -№3. -Б.51-54.



8. Абдусайдов А. Тушум келишигининг белгисиз қўлланиши ва унинг бош келишиikka муносабати масаласига доир айрим мулоҳазалар // Ўзбек тили грамматик қурилиши масалалари. -Самарқанд, 1981. -Б. 111-119.
9. Аширбоев С., Азимов И. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси (ўқув-услубий қўлланма). -Тошкент: ТДПУ, 2002. 137 б.